

## CHO‘YAN VA PO‘LAT ISHLAB CHIQRISH MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Isaqova Oydinoy Alisher qizi**

Andijon viloyati Paxtaobod tumani

37-maktab o‘qituvchisi

E-mail: [zokirjonovaoydinoy@gmail.com](mailto:zokirjonovaoydinoy@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanining eng sanoatbop mavzularidan bo‘lgan Cho‘yan va po‘lat ishlab chiqarish mavzusini o‘qitishda interfaol metod hisoblangan Quyosh metodikasidan foydalanishning samarasi va o‘quvchilarni darsga qiziqtirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** internet,gadjet,kimyo,cho‘yan,po‘lat,interfaol metod, quyosh metodikasi;

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar,axborot kommunikatsiya vositalari,internet tobora kengayib borayotgan bir davrda,o‘quv dargohlarida tahsil olayotgan o‘quvchi va talaba yoshlarni dars jarayoniga qamrab olish ham bir muncha mushkul bo‘lib bormoqda.

Bunday vaziyatda o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlariga qiziqtirish, ularning ishtirokini oshirish uchun an‘anaviy usullardan tortib,videolahvalarga yozilgan tasvirlardan foydalanishni o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi, chunki davr taqozosi bilan barchaning qo‘lidagi eng so‘nggi zamonaviy gadjetlar yordamida istalgan ma‘lumotni topishning imkoni bor.


Jumladan, kimyo fanida ham faqatgina qiziqarli tajribalargagina tayanib qolmasdan, o‘quvchi faolligini oshirishga undovchi didaktik materiallar va intefaol metodlardan

foydalanilsa, o‘quvchilarni o‘yin tarzida shakllantirilgan dars mashg‘ulotlariga jalb qilinsa, nafaqat darsning mazmunli o‘tishiga balki, o‘quvchilarning dars mavzusini puxta o‘zlashtirishiga erishish ham samarali bo‘ladi.


Ana shunday interfaol metodlardan biri **“Quyosh metodika”** si bo‘lib, bu dars mavzusining ma‘lum predmetini bir-biriga taqqoslab, farqi va o‘xshashliklari, xossalari ko‘ra tegishlilik darajasini aniqlashga asoslanadi.

9-sinf kimyo fani darsligida berilgan **“Cho‘yan va po‘lat ishlab chiqarish”** mavzusini o‘qitishda ham ushbu metoddan foydalanilsa o‘quvchilarning xotirasidan dars mavzusi va mohiyati chuqur o‘rin olishiga, tezkor va chaqqon fikrlashiga, jamoaviy ishlash qobiliyatini oshirishga erishgan bo‘lardik.

**Quyosh metodikasi tavsifi:** dars mavzusida taqqoslanayotgan atamalar yoki moddalar aylana ichiga yozilib, markazga joylashtiriladi, ularga tegishli xossa, belgi va birikmalar, ularni tayyorlashda kerak bo‘ladigan xom ashyolar quyoshning nurlariga o‘xshagan alohida qog‘oz bo‘laklariga yoziladi, ixtiyoriy tarzda nurlarni rang barang holatda ham tanlash mumkin. Masalan: (1-rasm)



Ushbu ramziy ma‘nodagi quyosh nurlariga cho‘yan va po‘latga tegishli xossalari, belgilar, ishlab chiqarish xom ashyolari va vositalarini chalkash holatda alohida yozib chiqamiz, uni A3 formatdagi qog‘ozning yuqori qismiga (1-rasm)dagi ko‘rinishda yopishtirib olamiz.



Qog‘oz o‘rtasiga esa 2ta aylana chiziladi yoki rangli qog‘ozdan aylana shaklida kesib olib yopishtirsa ham bo‘ladi. So‘ngra, cho‘yanga va po‘latga tegishli xususiyatlar kerakli aylana atrofiga yopishtirib chiqiladi (2-rasm)

Ushbu metodni bajarish davomida o‘quvchilarning jamoa bilan kelishib ishlash, fikrlash qobiliyati, izlanuvchanligini oshirishga erishish mumkin. Bu usuldan nafaqat kimyo balki, barcha fanlarning umumlashtiruvchi darslarida tegishli predmetlarga nisbatan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. N. Abdullayeva. Kimyo fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni turli shakl va usullari (uslubiy qo‘llanma). Urganch, 2011-yil.
2. “Kimyo asoslari” I. Asqarov, K. G‘opirov T., 2011
3. “Kimyo” 9-sinf darsligi I. Asqarov, K. G‘opirov, N. To‘xtaboyev T., 2019